

UO‘K: 821.512.133.09-31

## MILLIYLIKNING BOLALAR ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Xolyorov Mirzabek Baxtiyor o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti  
“Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)”  
kafedrasi o‘qituvchisi,  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7434-5502>

**O‘z:** Maqolada globalashuv davrida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning qalbiga Vatanga sadoqat, ona tiliga hurmat va qadriyatlarga sodiqlikni singdirishda o‘zbek bolalar adabiyotining o‘rni tahlil etiladi. Xalq ertaklari, bolalar nasriy asarlari, she‘riyat va zamonaviy adabiyot namunalari milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi ko‘rsatib o‘tilgan. Asosiy e‘tibor halollik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, Vatanga muhabbat kabi insoniy fazilatlarni bolalar ongiga singdirish jarayoniga qaratilgan. Maqola xulosasida bolalar adabiyotida milliy ruhni saqlab qolish muhim vazifa ekanligi ta‘kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Bolalar adabiyoti, Milliy qadriyatlar, badiiy vosita, Ertaklar, O‘zbek xalq ertaklari, nasriy asarlar, bolalar tili, Doston, xalq

УДК: 821.512.133.09-31

## РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ САМОБЫТНОСТИ В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.

Холёров Мирзабек Бахтиёрович

“Преподаватель кафедры  
филологии и преподавания  
языков (узбекский литературе)”  
Каршинского государственного университета  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7434-5502>

**Ru:** В статье рассматривается важность воспитания подрастающего поколения в духе национальных ценностей в условиях глобализации, а также значительная роль детской литературы в этом процессе. Особое внимание уделено отображению таких понятий, как честность, трудолюбие, уважение к родителям, любовь к Родине в узбекских народных сказках, прозе и поэзии для детей. Отмечается, что современные писатели удачно сочетают традиционные ценности с актуальными темами. В заключение подчёркивается необходимость дальнейшего углублённого раскрытия национальных ценностей в детской литературе.

**Ключевые слова:** Детская литература, Национальные ценности, Художественное средство, Сказки, Узбекские народные сказки, Прозаические произведения, Детская речь, Эпос, Народ

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning qalbiga Vatanga muhabbat, ona tiliga hurmat, urf-odat va qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularini singdirish dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda bolalar adabiyotining o'rni beqiyosdir. Zero, bolalikda o'qilgan birgina ertak, she'r yoki hikoya bola ongida butun umrga tatigulik iz qoldiradi. Shu bois, O'zbek bolalar adabiyotida milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar har bir asarning asosiy mazmuniy qatlamlaridan birini tashkil etadi.

Biz o'tmishdagi ma'naviy merosimizni muhtasham bir dengiz deb tasavvur etadigan bo'lsak, bu boradagi hozirgi bilim va tasavvurlarimiz dengizdan tomchi xolos. Bugun mustaqillik tufayli erishgan eng katta yutuqlarimizdan biri bu buyuk ajdodlarimiz milliy-ma'naviy merosining qayta tiklanishidir. So'ngi yillar ichida o'tmish milliy-ma'naviy va madaniy merosini o'rganish, ularning xalqimiz ma'naviyatiga ta'sirini ko'plab soha vakillari tadqiq qilmoqdalar. Ajdodlarimizning ongi va qalbida milliy qadriyatlarimiz ming-ming yillar davomida o'zining eng oliy qadriyatlari sifatida shakllanib borgan desak, hech ham xato qilmaymiz. Bugungi kunda

mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy sohalardagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonparvar, vatanparvar, millatparvar, ajdodlarga munosib xalq bo'lishdan iboratdir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizning qanday buyuk va shonli o'tmishimiz, qanday ulug' ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz" – deb ta'kidlab o'tadilar. Milliy qadriyatlar deganda, avvalo xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, axloqiy-me'yorlari, madaniyati, diniy tushunchalari, ona tiliga bo'lgan munosabati, oilaviy muomala, ota-onaga hurmat kabi insoniy fazilatlar nazarda tutiladi. Milliy qadriyatlar – bu xalqning ma'naviy poydevori bo'lib, unda urf-odatlar, axloqiy me'yorlar, hayot falsafasi mujassam. O'zbek xalq ertaklarida mehnatsevarlik, halollik, adolatparvarlik, sabr-toqat, oila muqaddasligi, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, vatanparvarlik kabi qadriyatlar jonli obrazlar va ramzlar orqali ifodalanadi. "Xalqimiz tabiatda yaralmishdan bunyodkorlik, yaratuvchilik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, tejamkorlik, tabiat mulkiga oqilona munosabat, insonparvarlik, tinchliksevarlik, boshqa xalqlar madaniyatiga hamda ajdodlar merosiga hurmat, totuvlik, bag'rikenglik, hamjihatlik, haqgo'ylik, adolatparvarlik, mardlik, tantilik, oliyjanoblik, poklik, halollik, himmat, sahovat, ezgu niyatlik, kechirimlilik, oilaparvarlik, bolajonlik, kelajakka ishonch, ilm sevarlik kabi insoniy fazilatlar qadr-u qaror topgani ham bor haqiqatdir" Bu tushunchalar bolalar adabiyotida turli badiiy vositalar orqali ifodalanadi.

**1. Ertaklarda milliy qadriyatlar:** Xalq ertaklari – bu o'tmishdan kelajak sari uzatilgan ruhiy ko'prikdir. Unda xalqning orzu-umidlari, yashash tarzi, axloqiy mezonlari va ma'naviy dunyosi aks etgan. O'zbek xalq ertaklari esa ana shu boy madaniyat va qadriyatlar xazinasi bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ertaklarda xalqimiz qadrlaydigan eng muhim xislatlar: halollik, mehnatsevarlik, sabr, oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, adolatparvarlik singari tushunchalar asar mazmuni orqali o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq ertaklari – milliy tafakkur va axloqiy

qarashlarning eng qadimiy va boy manbalaridan biridir. “Zumrad va Qimmat”, “Boy ila kambag‘al”, “Toshbaqa va tulki” kabi ertaklarda halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, adolat, kattalarga hurmat kabi qadriyatlar yuksak darajada ifodalangan.[1:54] Ayniqsa, ijobiy qahramonlarning muvaffaqiyatga erishuvi, yovuz kuchlarning jazolanishi milliy axloqiy me‘yorlarni mustahkamlaydi.

**2. Bolalar nasriy asarlarida qadriyatlar:** Bolalar nasriy asarlarida qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Har bir ijodkor bolaligida ertak va afsonalar bilan ulg‘aygan bo‘lib, ular fantaziyani rivojlantiradi. Navoiydan Aytmatovgacha bo‘lgan ijodda ham ertak va afsonalar xalq ruhiyati va dahosini aks ettiruvchi manba sifatida namoyon bo‘ladi. “Sariq devni minib” asarida ilmga intilish, orzuga erishish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, dangasalik va yengil hayot istagi tanqid qilinadi. Nosir Fozilovning “Saraton” asarida esa o‘zbek oilasidagi tarbiya, ota-ona va bola munosabati, mahalla muhiti, el-yurtga hurmat va mehmondo‘stlik kabi qadriyatlar yorqin ifodalanadi. Yozuvchi sodda, bolalar tiliga mos uslub orqali milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdiradi[4:121].

**3. She‘riyatda milliy ruh:** O‘zbek bolalar she‘riyatida milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Tursunboy Adashboyev, G‘afur G‘ulom, Dilshod Rajab, Anvar Obidjon kabi shoirlar asarlarida ona tiliga mehr, Vatanga muhabbat, ezgulik, halollik va mehr-oqibat g‘oyalari yetakchilik qiladi[5:98]. She‘riy ertak-dostonlarda ham yuksak ruh va ma‘naviy g‘oyalar aks etadi. Xususan, Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” dostonida xalqning kuchiga ishonch, vatanparvarlik va zulmga qarshi kurash g‘oyalari ifodalanadi. Asarda yaxshilik va xudbinlik qarama-qarshi qo‘yilib, maqsadga erishishda bilim va botirlikka undaladi. Oygul obrazi esa go‘zalligi bilan birga jasur, mehnatkash, irodali va xalqparvar ayol sifatida tasvirlanib, chinakam xalq qahramoni darajasiga ko‘tariladi[8:78].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek bolalar adabiyoti yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning ongida Vatanga muhabbat, xalq urf-odatlarini va qadriyatlarga

sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ertaklar, nasriy asarlar va she‘riyat orqali milliy axloqiy mezonlar, ezgulik va halollik, sabr-toqat va mehnatsevarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr singari qadriyatlar bolalar ongiga singdiriladi. Ayniqsa, o‘zbek xalq ertaklarida xalqning asrlar davomida shakllangan ma‘naviy boyligi va hayot falsafasi obrazli ifoda topgan. Nasriy asarlar esa oila tarbiyasi, ijtimoiy munosabatlar va milliy qadriyatlarni sodda, bolalar tiliga mos shaklda yetkazadi. She‘riyatda esa Vatanga muhabbat, ona tiliga sadoqat, jasorat, xalqparvarlik kabi tuyg‘ular yuksak badiiy vositalar bilan ifodalanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirzayev T. va boshq. O‘zbek folklori. Darslik.- Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Тoшкeнт: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Safarov O Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –Тoшкeнт: “Fan”, 2009.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -T.: O‘qituvchi 2011 - 260 b.
5. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. -Buxoro.: Durdona, 2019.- 420 b.
6. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma.T.: 2020. - 197 b.
7. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi. 1990
8. “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonlar. Hamid Olimjon. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017
9. O‘zbek xalq ertaklari / – T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019
10. Sariq devni minib: to‘plam / Xudoyberdi To‘xtaboyev. -T.: «Yangi asr avlodi», 2013. - 540 b